QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 10 - oktabr 243-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq:

1. Qo‘ng‘irot tumani qishloq xo‘jaligi bo‘limi tasarrufida bo‘lgan, ko‘p yillardan beri foydalanilib, bugungi kunda butunlay ta’mirtalab holatga kelib qolgan “NEXIA-3” rusumli davlat belgisi 95/494OAA bo‘lgan xizmat avtomashinasi ehtiyot qismlar sotib olish va ta’mirlash zarurligi kelib chiqmoqda. Ishlab chiqilgan defekt dalolatnomasiga muvofiq ushbu xizmat avtomashinasiga zarur ehtiyot qismlar sotib olish va ta’mirlash harajatlari uchun jami 14 mln. 95 ming (o‘n to‘rt million to‘qson besh ming) so‘m mablag‘ zarurligi aniqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Kurbanov, Tajibaev)ning mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan xizmat avtomashinasiga ehtiyot qismlar sotib olish va ta’mirlash xarajatlariga zarur bo‘lgan mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov) bilan birgalikda xizmat avtomashinasiga ehtiyot qismlar sotib olish va ta’mirlash xarajatlariga zarur bo‘lgan mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan ajratsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari M.Tajibaev tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi tasarrufida bo‘lgan mazkur xizmat avtomashinasiga ehtiyot qismlar sotib olish va ta’mirlash xarajatlariga ajratilgan mablaglarni tegishli tartibda tuzilgan shartnomalar asosida o‘tkazib berilishini hamda shartnomada nazarda tutilgan tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanov va tuman hokimining o‘rinbosari M.Tajibaev zimmasiga yuklansin.

Rayon hákimi **B.Madaminov**